MULK HUQUQNINI HIMOYA QILISHNING MILLIY QONUNCHILIKDAGI O'ZIGA XOSLIKLAR

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Yuridika fakulteti talabasi
Ro'ziyeva Ruxshona Ravshan qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqola fuqarolik huquqi asosiy qismlaridan biri bo'lgan mulk huquqini himoya qilish masalasini xalqaro va milliy qonunchilik nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Maqolada birinchi navbatda mulk huquqining asosiy tushunchalari va ahamiyati, shuningdek, uning xalqaro huquq doirasidagi o'rni ko'rib chiqiladi. Milliy qonunchilik tizimlarining mulk huquqini himoya qilishdagi o'ziga xos jihatlar ko'rib chiqilib, ushbu sohadagi amaliy muammolar va ularni hal qilish yo'llari taklif etiladi. Maqola mulk huquqini himoya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini keng qamrovda yoritib, huquqshunoslar, talabalar va boshqa manfaatdor shaxslar uchun muhim ma'lumotlar taqdim etadi.*

Kalit so'zlar: *mulk huquqlarini himoya qilish, mulkiy huquqlarni himoya qilish usullari, vindikatsiya da'vosi, topshirilmagan harakat, mulk huquqlarini himoya qilishning boshqa vositalari, mulk huquqining kafolatlari.*

KIRISH

Mulk huquqi – moddiy ne'matlarning aniq bir shaxslarga tegishliligi (o'zlashtirilganligi)ni mustahkamlovchi, tartibga soluvchi va muhofaza qiluvchi normalar yig'indisi; fuqarolik huquqining asosiy tartibotlaridan biri. O'zbekiston Respublikasi FKga ko'ra, mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining Mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iborat. Mulk huquqi insonning o'z mulkiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi asosiy huquqlardan biri bo'lib, fuqarolik jamiyatining barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Mulk huquqi nafaqat shaxsiy mulkni ta'minlash, balki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy erkinliklarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Shaxsning mulki uning erkinligini, farovonligini va xavfsizligini ta'minlaydigan eng asosiy vosita hisoblanadi. Shu bois, mulk huquqini himoya qilish davlatlarning qonunchilik tizimlarida, shuningdek, xalqaro huquqda alohida o'rin tutadi. Xalqaro huquqda mulk huquqining himoyasi xalqaro shartnomalar, deklaratsiyalar va sud amaliyotlari orqali amalga oshiriladi. Ularning har biri shaxsiy mulkni himoya qilishning umumiy tamoyillarini belgilaydi, shuningdek, davlatlarga bu huquqni ta'minlash uchun ma'lum majburiyatlar yuklaydi. Biroq, mulk huquqini himoya qilishning xalqaro tizimi har bir mamlakatning milliy

qonunchiligiga va madaniyatiga qarab turlicha shakllanadi. Milliy qonunchilikda mulk huquqi faqat huquqiy normalar bilan cheklanib qolmaydi, balki davning iqtisodiy siyosati, ijtimoiy va madaniy sharoitlariga ham bevosita ta'sir qiladi.

ASOSIY QISM

Mulk huquqi inson erkinligini ta’minlashning muhim kafolatlaridan biri bo‘lib, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Mulkning mavjudligi va u bilan bog‘liq huquqlarni amalga oshirish imkoniyati shaxsning iqtisodiy farovonligini ta'minlash, o‘z hayot faoliyatini mustaqil tashkil etish va jamiyatda erkin faoliyat yuritishini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bois, mulk huquqi faqat yuridik me'yorlar majmui emas, balki insonning asosiy huquq va erkinliklaridan biri sifatida qarash lozim. Mulk huquqi shaxsga o‘z mol-mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish imkoniyatini beradi. Bu huquq shaxsning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlaydi, ya'ni inson o‘z mulkidan daromad olish orqali turmush darajasini oshiradi. Shaxsning o‘z hayotini erkin tashkil qilishiga shart-sharoit yaratadi. Misol uchun, mulk orqali mustaqil tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ta'lim olish yoki sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari kengayadi. Insonning xavfsizlik hissini mustahkamlaydi, chunki mulkka egalik qilish uni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mustaqil qiladi.

Mulk huquqining kafolatlanishi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur shartlardan biri hisoblanadi. Mulk huquqi himoyasi kafolatlangan davlatlarda investorlar mol-mulklarining xavfsizligiga ishonadi, bu esa ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi. Mulkning erkin aylanmasi, ya'ni sotib olish, sotish yoki ijaraga berish imkoniyatlari bozor iqtisodiyotining samarali ishlashiga xizmat qiladi. Mulk huquqi texnologiyalarni rivojlantirish va yangi biznes modellarni yaratishga imkoniyat beradi, chunki shaxslar o‘z mulklaridan mustaqil foydalanish orqali yangi tashabbuslarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mulk huquqi iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishini va ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilanishiga ijobiy ta’sir qiladi. Mulk huquqi jamiyatning asosiy institutlaridan biri sifatida shaxsiy erkinlik va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois, ushbu huquqni huquqiy himoya qilish tizimini kuchaytirish va rivojlantirish nafaqat milliy qonunchilik darajasida, balki xalqaro hamkorlik va standartlar asosida ham muhim ahamiyatga ega. Mulk huquqining ta’minlanishi barqaror iqtisodiy rivojlanish va fuqarolik jamiyati taraqqiyotining poydevorini yaratadi.

Mulk huquqini himoya qilish xalqaro huquqda bir qator muhim hujjatlarda belgilangan. Bular :

BMTning Inson huquqlari to‘g‘risidagi umumjahon deklaratsiyasi (1948)ning 17-moddasida har bir insonning o‘z mulkiga egalik qilish huquqi kafolatlanadi. Shuningdek, hech kimning mulkidan noqonuniy ravishda mahrum qilinmasligi

ta’kidlanadi. Bu xalqaro huquqda mulk huquqini himoya qilishning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi[1].

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966)da mulk huquqi bevosita qayd etilmagan bo‘lsa-da, undagi boshqa huquqlar (masalan, yashash erkinligi, xavfsizlik va erkin iqtisodiy faoliyat) mulk huquqi bilan chambarchas bog‘liqdir[2].

Yevropa inson huquqlari konvensiyasi (1950)ning 1-sonli qo‘shimcha protokoli mulk huquqini himoya qilishni bevosita tartibga soladi. Ushbu protokolga ko‘ra, har bir insonning mulkidan erkin foydalanish huquqi kafolatlanadi va bu huquq faqat qonuniy asosda cheklanishi mumkin[3].

Amerika inson huquqlari konvensiyasi (1969)ning 21-moddasi mulk huquqini himoya qiladi va mulkka egalik qilishni har bir insonning tabiiy huquqi sifatida tan oladi[4].

Afrika xalqlari va inson huquqlari xartiyasi (1981)da mulk huquqi fuqarolarning asosiy huquqlari qatorida qayd etilgan[5].

BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi mulk huquqi buzilishlarini monitoring qilish va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Jahon Banki mulk huquqining iqtisodiy rivojlanish uchun ahamiyatini targ‘ib qiladi va davlatlarni ushbu sohada islohotlarni amalga oshirishga undaydi. Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organization for Economic Co-operation and Development) xususiy mulk va sarmoyadorlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi[6]. Mulk huquqi xalqaro huquqda inson huquqlarining asosiy elementlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu huquqning kafolatlanishi nafaqat shaxslarning iqtisodiy farovonligini ta’minlaydi, balki davlatlararo munosabatlarda barqarorlik va ishonchni shakllantiradi. Shu bois, xalqaro hamjamiyat mulk huquqini mustahkamlashga doimiy e'tibor qaratmoqda. Shaxsiy mulk huquqining xalqaro darajadagi himoyasi asosan xalqaro shartnomalar, konvensiyalar va bitimlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu hujjatlar shaxslarning mulkiy huquqlarini himoya qilish, davlatlarning bu boradagi majburiyatlarini belgilash hamda shikoyat va nizolarni hal etish mexanizmlarini ta’minlaydi.

---

[1] Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (1948). *Inson huquqlari to'g'risidagi umumjahon deklaratsiyasi*. BMT. https://www.un.org/en/universal-declaration-human-rights/

[2] Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (1966). *Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt*. BMT. https://www.ohchr.org/en/professional-interpreters/civil-and-political-rights

[3] Yevropa Kengashi. (1950). *Yevropa Inson Huquqlari Konvensiyasi*. https://www.echr.coe.int/documents/convention_eng.pdf

[4] Amerika Inson Huquqlari Konvensiyasi (1969). *Amerika Inson Huquqlari Konvensiyasi*. Olingan manba: https://www.oas.org/en/iachr/mandate/Basics/

[5] Afrika Ittifoqi. (1981). Afrika xalqlari va inson huquqlari xartiyasi. https://www.achpr.org/legalinstruments/detail?id=49

[6] Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD). (n.d.). Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD). https://www.oecd.org/

Xalqaro shartnomalar mulk huquqining ishonchli himoyasini ta’minlash uchun huquqiy asoslar yaratadi. Ushbu hujjatlar shaxsiy mulkni himoya qilishni milliy chegaralar doirasidan chiqarib, davlatlararo huquqiy tizimlarning bir qismi sifatida qarash imkonini beradi. Bu esa global iqtisodiyotning barqarorligi va fuqarolarning iqtisodiy erkinligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Mulk huquqining milliy qonunchilikda himoyasi har bir davlatning huquqiy tizimida o‘ta muhim o‘rin tutadi. Milliy qonunchilikda mulk huquqini himoya qilishga oid normalar nafaqat fuqarolarni o‘z mulkiga bo‘lgan huquqlarini himoya qilishni ta’minlaydi, balki davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorligini mustahkamlaydi. Milliy qonunchilikda mulk huquqi ta'minlanishi, davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar va xalqaro investitsiyalar uchun kafolatlarni yaratadi. Milliy qonunchilikda mulk huquqi faqat mulkni egallash bilan cheklanib qolmasligi, balki undan foydalanish va tasarruf etish (sotish, ijaraga berish, merosga qoldirish va h.k.) huquqlarini ham ta’minlashi zarur. Bu erkinlik mulkning o‘zlashtirilishini va iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishni ta’minlaydi.

Milliy qonunchilikda mulk huquqi buzilgan taqdirda, shaxslar yoki subyektlar huquqiy himoya olishlari uchun samarali mexanizmlar yaratilgan bo’lib, bu esa sud tizimi orqali mulk huquqining buzilishi holatida o‘z vaqtida va adolatli qarorlar qabul qilishni ta’minlaydi. Fuqarolar va yuridik shaxslar, mulk huquqi buzilgan taqdirda sudlarga murojaat qilish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mulk huquqini kafolatlaydi va har bir fuqaroning o‘z mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish huquqini himoya qiladi[7]. Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli. Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta’minlanadi.

Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas.

Bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi[8].

O‘zbekistonning Fuqarolik kodeksi mulk huquqi va uning himoyasini ta’minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu kodeksda mulkni sotish, sotib

[7] O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/-6445145
[8] O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/-6445145

olish, ijaraga berish, merosga qoldirish va uning himoyasi haqida batafsil aytib o'tilgan. Mulkdor o'z mol-mulkini boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olishga haqli (vindikatsiya). Mulkdor o'z huquqlarining har qanday buzilishini, garchi bu buzish egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmasa ham, bartaraf etishni talab qilishi mumkin (negator da'vo)[9]. O'zbekiston Respublikasining amaldagi FKda mulkni o'tmishda sotsialistik jamiyatning sinflarga bo'linishiga asoslanib (davlat, kolxoz kooperativi, shaxsiy) shakllarga ajratilishiga va qaysi shaklda, kimga tegishliligiga qarab o'rnatilgan tengsizlikka barham berildi. Sho'rolar davrida mulk egalarining huquklari tegishli qoidalarda, shuningdek, amaliyotda ham doimo cheklanib kelingan. Endilikda mulk egasiga tegishli bo'lgan mol-mulkni turli sabablar va har xil yo'l bilan davlat idoralari va mansabdor shaxslar tomonidan olib qo'yilishi, mulkdan erkin foydalanish uchun to'sqinliklar vujudga keltirilishi g'ayriqonuniy hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mulkiy huquqni amalga oshirishni kafolatlaydi, mulkdorning konstitusiyaviy huquqlarini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, mol-mulkni ko'paytirishni cheklashga hamda uni majburan tortib olishga yo'l qo'yilmaydi[10].

Xalqaro qonunchilik, davlatlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish uchun yaratilgan normalar to'plamidir. Bu qonunlar faqat davlatlar uchun majburiy bo'lib, xalqaro tashkilotlar va boshqa xalqaro subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni ham tartibga soladi. Xalqaro qonunchilikka xalqaro shartnomalar, bitimlar, protokollar, xalqaro huquqiy konvensiyalar va sud qarorlari kiradi. Milliy qonunchilik, bir davlat ichidagi fuqarolar, tashkilotlar va davlat organlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar to'plamidir. Xalqaro qonunchilikning asosiy maqsadi - davlatlararo munosabatlarda tartibni saqlash, tinchlikni qo'llab-quvvatlash va xalqaro hamjamiyatdagi umumiy manfaatlarni himoya qilishdir.

Xalqaro qonunchilik ko'proq moslashuvchan va davlatlararo kelishuvlarga asoslangan. Bunday qonunlar xalqaro munosabatlar, savdo, xavfsizlik, ekologiya va inson huquqlari kabi global masalalarga yo'naltirilgan. Xalqaro qonunchilik doirasida davlatlar o'rtasidagi kelishuvlarga erishish osonroq bo'lgan holatlar mavjud. Milliy qonunchilik har bir davlatning ichki tizimiga mos keladi va ko'proq aniq, qat'iy va ichki ijtimoiy, iqtisodiy tizimga muvofiq ishlab chiqiladi. Milliy qonunchilikda ko'proq davlatning o'ziga xosligi va maqsadlariga qarab o'zgarishlar bo'ladi. Mulk huquqini himoya qilish jamiyatning iqtisodiy va huquqiy barqarorligi uchun muhim

[9] O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi [2024 - yil 21 - fevralgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan] – T.: „ Yuridik adabiyotlar publish" 2024 y. 608 b.

[10] O'zbekiston Respublikasining 1990-yil 31-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasida Mulkchilik to'g'risida»gi 152-XII-son qonuni https://lex.uz/uz/docs/-111466

ahamiyatga ega. Biroq, mulk huquqini himoya qilishda milliy qonunchilikda bir qancha muammolar mavjud bo'lib ulardan ba'zilarini ko'rib o'tsak:

- Turarjoy binolarini buzishmoqda va u yerda istiqomat qilayotgan odamlarni kvartiralaridan majburan chiqarishmoqda (ko'pchilik uchun bu o'zlari ega bo'lgan asosiy mulkdir); (ноционализация, реквизиция деган тушунчалар бор)
- Biznes hamkorlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaydi, masalan, qarzlarni o'z vaqtida qaytarmaydi, yetkazib berilgan mahsulotga haq to'lamaydi (huquq-tartibot va sud tizimi esa jabrlangan tomonni umuman yoki yaxshi himoya qilmaydi);
- Fermerlar faqat ma'lum bir turdagi mahsulot yetishtirish va yetishtirilgan mahsulotni davlatga past narxlarda sotishga majburlanmoqda (bu yerda yerdan va yetishtirilgan mahsulotdan foydalanish huquqlari buzilmoqda);
- Mulkdan foydalanish va tasarruf etish huquqini tartibga soluvchi ijara shartnomalariga ters o'laroq, tadbirkorlardan maydonlar, fermerlardan yerlar tortib olinmoqda.

Turar joylarning buzilishi kabi so'ngi vaqtlarda tobora dolzarblik kasb etayotgan muammo mulk huquqini himoya qilishdek umumiy muammoning faqatgina bir qismidir, deydi iqtisodchi Yuliy Yusupov o'zining maqolasida. Agar biz zamonaviy svilizatsiyalashgan jamiyat qurishni istasak, mulk huuquqini himoyalashning samarali tizimi hamda mulkdorlarning layoqatli sinfini yaratishimiz kerak bo'ladi. Ularsiz huquqiy davlat, demokratik institutlar va bozor iqtisodiyoti barqaror faoliyat ko'rsatishi imkonsiz.

Aslida, mulk huquqini himoya qilish – abstraksiya emas, aksincha, konkret va amaliy substansiya bo'lib, u nafaqat badavlat insonlarga, balki barchaga taalluqlidir. Buni esa insonlar o'z huquq va manfaatlariga to'g'ridan -to'g'ri daxl qilingandagina anglab yetishadi.

Mulk huquqi buzilishi va uning tuzatilishi – jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, iqtisodiy faoliyatni himoya qilish va fuqarolar huquqlarini tiklashdagi muhim masalalardir. Mulk huquqining buzilishi nafaqat shaxsiy darajada, balki keng ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, milliy va xalqaro darajada mulk huquqlarini buzilishining oldini olish va buzilgan huquqlarni tiklash bo'yicha samarali mexanizmlar yaratish zarurdir. Mulk huquqini buzishning oldini olish va tuzatishning istiqbollari bir necha asosiy yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin. Samarali sud tizimi mulk huquqlari buzilgan holatlarda birinchi navbatda huquqiy himoya mexanizmi sifatida chiqadi. Mulk huquqlarining buzilishi holatlarida fuqarolar, tashkilotlar yoki davlatlar sudga murojaat qilib, zarar ko'rgan tomonlarni himoya qilishlari kerak. Sudlar o'z ishlarini shaffof va adolatli amalga oshirishlari, sud jarayonlari hech qanday tashqi bosimlarga uchramasligi kerak. Bu, fuqarolarga o'z

huquqlarini himoya qilishda ishonch hosil qilish imkonini beradi. Sud tizimining samarali ishlashi, mulk huquqi buzilgan holatlarda tez va adolatli qarorlar chiqarilishini ta'minlashi kerak. Tezkor sud qarorlari, fuqaro va tashkilotlar uchun noqulayliklarni kamaytiradi va buzilgan huquqlarni tezda tiklash imkoniyatini yaratadi. Bu, sudlarning zamonaviy qonunchilikni to‘g‘ri talqin qilishiga va shaxslarning huquqlarini himoya qilishga yordam beradi. Mulk huquqi buzilishining oldini olish va tuzatish mexanizmlarini xalqaro darajada samarali amalga oshirish uchun davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zarur. Xalqaro tashkilotlar va davlatlar o‘rtasidagi kooperatsiya quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi kerak:

Xalqaro tashkilotlar, masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon Savdo Tashkiloti va Evropa Ittifoqi kabi tashkilotlar mulk huquqlarini himoya qilish va buzilishining oldini olish bo‘yicha global standartlarni ishlab chiqishlari zarur. Xalqaro shartnomalar va kelishuvlar, davlatlar uchun mulk huquqini buzilishining oldini olishda bir xil prinsiplar asosida ish yuritishni ta'minlashga yordam beradi. Global miqyosda faoliyat yurituvchi transmilliy kompaniyalar va korporatsiyalar mulk huquqlari buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Xalqaro hamkorlik bu turdagi nizolarni hal etishda zarur bo‘ladi. Shuningdek, ko‘p tomonlama diplomatiya orqali davlatlar o‘rtasidagi investitsiyalarni himoya qilish va o‘zaro manfaatlarga asoslangan qarorlar qabul qilish muhimdir. Xalqaro sudlar, masalan, Xalqaro sud**,** Yevropa inson huquqlari sudi yoki Xalqaro investitsiya nizolarini hal qilish markazi davlatlar o‘rtasidagi mulk huquqi buzilishlariga qarshi samarali javob choralarini ko‘rish va nizolarni hal etish bo‘yicha muhim rol o‘ynaydi. Bu sudlar, investitsiya nizolari, expropriatsiya va boshqa iqtisodiy buzilishlar bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqadilar.

Mulk huquqini buzilishining oldini olishda fuqarolar, yuridik shaxslar, korxonalar, tashkilotlar va davlat organlarining yuridik ta'limi va huquqiy madaniyati muhim rol o‘ynaydi. Agar fuqarolar o‘z huquqlarini tushunib, ularga e'tiborli bo‘lsa, ular mulk huquqlarining buzilishi va ularning himoya qilinishini tezda aniqlashlari va kerakli choralarni ko‘rishlari mumkin. Bu masalalarda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ba'zi chora-tadbirlar:

Mulk huquqi bo‘yicha ta'lim va huquqiy targ‘ibot ishi davlat darajasida amalga oshirilishi kerak. Bu, fuqarolarni mulk huquqlarini himoya qilishda yordam beradi va ular uchun eng yaxshi amaliyotlarni o‘rgatadi. Milliy qonunchilikda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan islohotlar mulk huquqlarining buzilishining oldini olishda va buzilgan huquqlarni tuzatishda muhim ahamiyatga ega. Davlatlarning o‘z qonunlarini zamon talablariga moslashtirish zarur.

Milliy qonunchilikda mulk huquqlarini himoya qilish uchun aniq va qat'iy me'yorlar belgilanishi kerak. Mulkni qaytarib olish, expropriatsiya ya'ni majburiy tarzda mulkdan mahrum qilish va boshqa buzilishlar bo‘yicha davlat qonunlari o‘zgartirilishi va yaxshilanishi lozim. Milliy qonunlar o‘z vaqtida va samarali ishlashi

uchun davlatlar monitoring tizimlarini yaratishlari kerak. Mulk huquqlarini buzish holatlarida davlatlar huquqiy tekshiruvlarni amalga oshirishi va kerakli chora-tadbirlarni ko‘rishi lozim. Mulk huquqi buzilgan shaxslar uchun kompensatsiya va tiklash mexanizmlarini takomillashtirish kerak. Bunday mexanizmlar fuqarolarni qoniqtirishi va mulk huquqlarini tiklash jarayonini tezlashtirishi lozim. Blockchain va elektron qaydnomalar mulk huquqini ro‘yxatga olish va uzluksiz kuzatish imkoniyatlari orqali mulk huquqlarining buzilishining oldini olish mumkin. Blockchain texnologiyasi orqali mulk huquqi to‘g‘risida aniq va o‘zgaruvchan ma'lumotlarni saqlash mumkin, bu esa mulkni noqonuniy egallashni oldini olishga yordam beradi. Elektron sud tizimlari va onlayn sud ishlari mulk huquqlari buzilgan holatlarda tezkor va samarali sud jarayonlarini amalga oshirishga yordam beradi. Bu tizimlar sud ishlarining shaffofligini va tezkorligini ta’minlaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mulk huquqi - shaxsiy erkinlik va iqtisodiy rivojlanish uchun asosiy huquqlardan biri bo‘lib, uning himoya qilinishi jamiyatning adolatli va barqaror ishlashining muhim shartidir. Mulk huquqlarining buzilishi nafaqat shaxsiy manfaatlarga, balki keng miqyosdagi ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, mulk huquqini himoya qilishning xalqaro va milliy qonunchilikdagi o‘rni va ahamiyati har bir jamiyatda to‘liq anglanishi lozim. Biroq, mulk huquqlarini himoya qilishda yuzaga kelayotgan muammolar keng qamrovli va turli jihatlardan iborat. Milliy qonunchilik va sud tizimlarining samarali ishlamasligi, korrupsiya va noqonuniy amaliyotlar, iqtisodiy tengsizliklar, shuningdek, xalqaro va milliy qonunlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, mulk huquqlari buzilgan shaxslarning huquqlarini tiklash va himoya qilishda katta to‘siqlar yaratadi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun zamonaviy yuridik va iqtisodiy mexanizmlar kerak bo‘ladi. Xalqaro va milliy qonunlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash, global miqyosda mulk huquqlarini himoya qilish bo‘yicha umumiy standartlarni belgilash zarur. Xalqaro tashkilotlar, masalan, BMT, Evropa Ittifoqi va boshqa xalqaro sudlar, mamlakatlarga mulk huquqlarini samarali himoya qilish uchun xalqaro shartnomalar va me’yorlarni amalga oshirishda yordam bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi [2024 - yil 21 - fevralgacha bo’lgan o’zgartirish va qo’shimchalar bilan] – T.: «Yuridik adabiyotlar publish», 2024-y. – 616-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/-6445145
3. O‘zbekiston Respublikasining 1990-yil 31-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida Mulkchilik to‘g‘risida»gi 152-XII-son qonuni https://lex.uz/uz/docs/-111466

4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (1948). *Inson huquqlari to'g'risidagi umumjahon deklaratsiyasi*. BMT. https://www.un.org/en/universal-declaration-human-rights/
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (1966). *Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt*. BMT. https://www.ohchr.org/en/professional-interpreters/civil-and-political-rights
6. Yevropa Kengashi. (1950). *Yevropa Inson Huquqlari Konvensiyasi*. https://www.echr.coe.int/documents/convention_eng.pdf
7. *Amerika Inson Huquqlari Konvensiyasi (1969).* Amerika Inson Huquqlari Konvensiyasi. *Olingan manba: https://www.oas.org/en/iachr/mandate/Basics/*
8. Afrika Ittifoqi. (1981). Afrika xalqlari va inson huquqlari xartiyasi. https://www.achpr.org/legalinstruments/detail?id=49
9. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD). (n.d.). Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD). https://www.oecd.org/
10. Muxtorov M.A. (2023). Mulk huquqini himoya qilish sohasida ichki ishlar organlarining o‘rni va ahamiyati. *Yevrosiyo Huquq, Moliya Va Amaliy Fanlar Jurnali*, *3*(10), 20–24. Retrieved from https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/21358

